Farida Afroʻz (1956)



Farida Afroʻz (1956)

Farida Afroʻz (Boʻtayeva Farida Qoʻziyevna) 1956 yil 5 martda Qoʻqon shahrida tugʻilgan. Muqimiy nomidagi Koʻqon davlat pedagogika institutida taxsil olgan (1977).

Fargʻona san’at bilim yurtida oʻqituvchi, Fargʻona viloyati, Bogʻdod tumanining «Avangard» gazetasida adabiy xodim, Uchkoʻprik tumanidagi «Iste’dod» ijodkor yoshlar uyushmasining raisi, Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi» huzuridagi «Shuur» ijodiy korxonasi direktori, Adliya vazirligining «Hayot va Qonun» yuridik jurnalida bosh muharrir oʻrinbosari, Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida san’at boʻlimi boshligʻi, «Yozuvchi» nashriyotida bosh muharrir vazifalarida ishlagan. 1994 yildan Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasining a’zosi.

«Qirq kokilligim» (1986), «Iztirob koʻylagi» (1992), «Tunlar isyoni» (1994), «Koʻzim manim…» (1999), «Oʻzimdan oʻzimgacha» (2001), «Ushshoq» (2004), «Tasbih» (2006) kabi she’riy toʻplamlari nashr etilgan. «Qurbonjon dodhox» (2000) tarixiy dramasi ham bor.

1999 yili “Shuhrat” medali bilan, 2001 yili «Oʻzbekiston mustaqilligining 10 yilligi» koʻkrak nishoni bilan taqdirlangan.

2023-09-12 20:26:32